

KORXONADA HISOB MA'LUMOTLARINI YIG'ISH, QAYD ETISH VA JAMLASH

Samarqand iqtisodiyot va servis institute

“Buxgalteriya hisobi kafedra” assistenti

Qo'ziyeva Maftuna Otabek qizi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Davronov Sherozbek Sharofiddinovich

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonalarda hisob ma'lumotlarini yig'ish, qayd etish va jamlash jarayonlari tahlil qilinadi. Hisob ma'lumotlari korxona moliyaviy faoliyatining asosi bo'lib, ularni to'g'ri va tizimli yuritish korxona boshqaruvi, nazorat va rejalashtirishning samaradorligini oshiradi. Maqolada ma'lumotlarni yig'ish usullari, hisobga olish tizimlari va jamlash mexanizmlari, shuningdek, ularning moliyaviy hisobotlar tayyorlashdagi o'rni ko'rib chiqiladi. Korxonada hisob ma'lumotlarini jamlash, ular asosida strategik qarorlar qabul qilish va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: korxona hisoboti, ma'lumotlarni yig'ish, moliyaviy nazorat, hisob tizimi, buxgalteriya, moliya, subyekt, tamoyil, soliq, korxona, tashkilot, farmon, byudjet.

Kirish. Korxonalar – jamiyat ehtiyojlarini qondirish va foyda olish maqsadida mahsulot ishlab chiqarish, ish va xizmatlarni bajarish uchun qonuniy asosda tashkil qilingan mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hisoblanadi. “O'zbekiston Respublikasida korxonalar to'g'risida”gi qonunda korxonalarning tashkiliy-huquqiy shakllari belgilab berilgan bo'lib, ular orasida davlat, fermer, xususiy, oilaviy, mahalla, to'liq shirkat, yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati, ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati, ijara, fermer xo'jaliklari va boshqa shakllar mavjud. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona va byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Buxgalteriya hisobi xo'jalik jarayonlari va yuzaga keladigan muammolarni muntazam kuzatib, qayd etish orqali ishlab chiqarish rejasining bajarilishini nazorat qiladi. Shu tariqa, u rejalashtirish,

nazorat qilish va iqtisodiy boshqaruv ishlarida asosiy funksiyani bajaradi hamda korxona faoliyatining samaradorligini ta'minlaydi.

Korxona faoliyati samaradorligini baholash va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun hisob ma'lumotlarini to'plash va tizimli qayd etish zarur. Hisob ma'lumotlari moliya, buxgalteriya va boshqaruv bo'limlari uchun asosiy resurs bo'lib, ularning to'g'ri shakllantirilishi korxonaning ichki va tashqi moliyaviy hisobotlarini aniqlik bilan ta'minlaydi.

Asosiy qism. Har bir korxonada tashkil etilgan buxgalteriya hisobi xo'jalik faoliyati jarayonida sodir bo'layotgan xo'jalik muomalalarini uzluksiz kuzatish va ularning natijalarini son ko'rsatkichlarida ifodalash, so'ngra maxsus hujjatlarda to'liq aks ettirishni ta'minlashi lozim. Shu bilan birga, buxgalteriya hisobi korxona biznes-rejasini tuzish va kelgusidagi strategik dasturlarni ishlab chiqishda kerakli ma'lumotlar bilan ta'minlab, ularning bajarilishi ustidan amaliy nazoratni amalga oshirishi zarur.

Mamlakatimizda buxgalteriya hisobi bo'yicha umumiy metodologik rahbarlik O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Buxgalteriya hisobi va auditi uslubiyati boshqarmasiga yuklatilgan. Ushbu boshqarma dastlabki hisob masalalari bo'yicha xalq xo'jaligi tarmoqlariga rahbarlik qiladi, buxgalteriya hisobida ishlaydigan kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlarini tashkil etadi, shuningdek, dastlabki hisobning tipik shakllarini ishlab chiqib, nashr qiladi. Bundan tashqari, barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun majburiy hisob va hisobot masalalariga oid yo'riqnoma va uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqadi.

Buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etish bo'yicha metodologik rahbarlik ham ushbu boshqarma tomonidan amalga oshiriladi. Moliya vazirligi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi bilan kelishilgan holda buxgalteriya hisobi schyotlar rejasini, buxgalteriya hisobi va hisobotining tipik shakllarini hamda ulardan foydalanishga oid yo'riqnomalarni tasdiqlaydi va hisobni takomillashtirish bo'yicha takliflarni joriy etadi.

Buxgalteriya hisobi – bu korxona, aksiyadorlik jamiyati, muassasa, tashkilot va boshqa sub'ektlarning xo'jalik faoliyatini uzluksiz kuzatish va nazorat qilish tizimi bo'lib,

u orqali kundalik va umumiy ma'lumotlar olinadi. Buxgalteriya hisobining maqsadi foydalanuvchilarni to'liq, ishonchli va o'z vaqtida tuzilgan moliyaviy hamda boshqa hisob axborotlari bilan ta'minlashdan iborat.

Buxgalteriya hisobi yordamida rejalashtirilayotgan ishlab chiqarish uchun pul va moddiy vositalar ehtiyoji hisoblanadi, taxmin qilinayotgan daromad va mahsulot tannarxi rejalashtiriladi, shuningdek, qo'yilgan maqsadga erishish yo'llari aniqlanadi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish jarayoni va iqtisodiy ko'rsatkichlarning amalga bajarilishi hamda biznes-rejalarda mo'ljallangan natijalar bilan qanchalik muvofiqligini kuzatish orqali xatti-harakatlarning rejaga mosligi aniqlanadi.

Ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun korxona haqida to'liq va ishonchli axborot bilan ta'minlashni bildiradi. Bu funksiya qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining vazifalari korxona va tashkilot ishlab chiqarish xo'jalik faoliyati vazifalaridan kelib chiqqan holda quyidagilardan tashkil topadi:

1. Belgilangan reja topshiriqlari o'z vaqtida bajarilishini nazorat qilish;
2. Moddiy mehnat va moliya resurslaridan samarali va oqilona foydalanish;
3. Ichki ishlab chiqarish rezervlarini aniqlash va ishga solish;
4. Korxona rahbari va ma'muriyatini hamda yuqori tashkilotlarni zarur hisobot ma'lumotlari bilan o'z vaqtida ta'minlash;
5. Korxona mulkchiligining xavfsizligini ta'minlash;
6. Iqtisodiy tartibning amalga oshirilishi ustidan nazorat olib boorish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya hisobi nafaqat hisob yuritish va statistika vazifasini bajaradi, balki manfaatdor tomonlar — korxona rahbari, tashqi investorlar va boshqa foydalanuvchilar uchun moliyaviy axborotga asoslangan samarali axborot tizimini yaratish zaruriyatidan kelib chiqadi. Moliyaviy-iqtisodiy tahlil korxonaning holatini yaxshilash maqsadida amalga oshiriladi va bu jarayon ilgari qabul qilingan strategiya va taktikalarning samaradorligini baholash hamda ularni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Tahlil

natijasida korxonada boy berilgan imkoniyatlar aniqlanadi, mavjud rezervlar hajmi belgilanadi, uskunalar, mehnat va xomashyo resurslaridan foydalanish samaradorligi oshiriladi, shuningdek, moddiy resurslar bilan uzluksiz ta'minlash tizimi yo'lga qo'yiladi.

Xulosa. Xulosa qiladigan bo'lsak, har bir byudjet tashkiloti hisobotda joriy davr va oldingi davrlar uchun moliyaviy hisobotga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar summasini har bir moddalar qatorida aniq ko'rsatishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti tizimida faoliyat yurituvchi tashkilotlar uchun byudjetdan ajratilgan mablag'lar bo'yicha xarajatlar smetasi hamda byudjetdan tashqari mablag'lar orqali amalga oshiriladigan daromadlar va xarajatlar smetalari tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish, shuningdek, shtatlar jadvalini shakllantirish va ro'yxatdan o'tkazish tartibi qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vahobov A., Ibragimov A., Ishonqulov N. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. T.: "Sharq" NMAK, 2005-y
- 2 Ochilov I. Moliyaviy hisob. T.: – "Moliya" 2008-y.
3. .Karimov A., Islomov F., Avloqulov A. Buxgalteriya hisobi. T.: – "Sharq" NMAK, 2004-y.
- 4 Norbekov D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. T.: – "Iqtisodmoliya", 2006 y.
- 5 Тейлор Ф.У. Научные основы организации промышленных предприятий. - СПб., 1912.
- 6 Ostonaqulov. Budjet hisobi. T.: 2008-y.